

O'ZBEKISTON DAVLAT  
XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI  
NASHRI



RAQS BU-GO'ZALLIK, SO'ZSIZ MULOQOT...

MA'NAViy-MA'RIFIY,  
ILMIY-AMALIY,  
AXBOROT GAZETASI

2026-YIL  
MART

# Raqs OLAMIMI



Gazeta  
2020-yildan  
chiqa  
boshlagan.

2026-YIL - MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI



NAVRO'Z – TINCHLIK ELCHISI

## XALQARO MAYDONDADA YUKSAK E'TIROF

Olmaota shahrida Oljas Sulaymonov tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan "Turkiy raqslar sadosi" shiori ostidagi "ORLEU" VII Xalqaro xoreografiya o'quv yurtlari festivali bo'lib o'tdi.

2008-yilda A.Seleznyov nomidagi Olmaota xoreografiya bilim yurti tomonidan asos solingan mazkur festival bugungi kunga kelib dunyoning turli mamlakatlaridan 3000 dan ortiq ishtirokchini birlashtirib, professional xoreografiya san'atining yetakchi maydonlaridan biriga aylandi.

Joriy yilda festivalda turkiy dunyoning 7 mamlakati — Turkiya, Ozarbayjon, O'zbekiston, Qirg'iziston, Boshqirdiston, Yoqutiston va Qozog'iston delegatsiyalari ishtirok etdi.

"ORLEU" bugungi kunda Markaziy Osiyoda Xalqaro balet tanlovlari federatsiyasi (IFBC) tarkibiga kiruvchi yagona loyiha sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston delegatsiyasi tarkibifa O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor Shuxrat Toxtasimov boshchiligidagi akademiya dotsenti v.b., san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Shirin Jalilova hamda akademiya talabala-yoshlari ishtirok etdilar.

Festival doirasida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor Shuxrat Toxtasimov Yevroosiyo madaniyat jamg'armasi tomonidan "Xizmat ko'rsatgan madaniyat arbobi" unvoniga sazovor bo'lib, medal bilan taqdirlandi. Mazkur xalqaro festival O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining jahon miqyosidagi nufuzini yanada mustahkamlash, milliy raqs san'atini keng targ'ib etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.



va bahor bayrami bo'lib qoldi. Eronda Navro'z rasman yangi kalendar yilining boshlanishi hisoblanadi.

Navro'z turli xalqlarni birlashtiradi, barcha mamlakatlarda odamlar ushbu bayramga puxta tayyorgarlik ko'rishadi: atrof tozalanadi, kambag'allarga sadaqa tarqatiladi, saxovat ko'rsatiladi, yaqin qarindoshlarga sovg'alar ulashiladi, dasturxoniga turli xil yegulik va shirinliklar pishiriladi. Barcha xalqlar bug'doy yoki yasmiq donlarini o'stiradi. Islom dini qabul qilinishidan oldingi qadimgi odatga ko'ra, Navro'zdan oldingi bir hafta kunlari ajdodlar ruhiga bag'ishlangan — odamlar vafot etgan qarindoshlarini xotirlagan, kelajakda ularni himoya qilishni so'rab, qurbonliklar keltirgan. Ba'zi joylarda yil davomida to'plangan gunohlarni "yuvish" uchun bayramdan oldingi kechada bir-birlariga suv sepish va oqar suv ustidan sakrash odati saqlanib qolgan. Xitoyda turmush qurish yoshidagi qizlar bayram paytida tizzagacha daryoga tushib, yangi yildan yaxshi kuyov so'rab qo'shiqlar kuyiladi. Ilgari qrim tatar qizlari navro'zdan ikki kun oldin fol ochishga hozirlik ko'rgan, bir ko'za suvga uzuk, sirg'a, marjonlar tashlab qo'yib, ertasi kuni kechasi yig'ilishgan, qizlardan eng kichigining ko'zi bog'lanib, unga idishdagi taqinchoqlarni birma-bir chiqarib, o'ynoqi tarzda opalari taqdiri va nikohini bashorat qilish vazifasi topshirilgan. Albatta, bu bayramda mehmondorchilikka katta e'tibor beriladi. Bayram dasturxonida turli xil noz-ne'matlar bo'lishi kerak. Qoida tariqasida, bu yettita taom. Eng keng tarqalganlaridan biri sumalak (samanu, samanak, somank, somalek). Xitoyda 7 xil mahsulotdan tayyorlangan yovg'on bo'tqasi asosiy bayram taomi hisoblanadi. Navro'zni nishonlayotgan xitoyliklar chiroyli va yorqin kiyimlarni kiyib, gul olib, ibodatxonaga borishadi. Afg'onistondagi bayram dasturxonida 7 xil mevadan tayyorlanadigan kompot, mevalar va yong'oqlar bo'lishi kerak. Bayram

sharafiga oiladagi har bir bola uchun pishirilgan tuxumlar turli ranglarda bo'yaldi. Eronda 7 ta taomdan iborat go'zal kompozitsiya tayyorlanadi, shuningdek, dasturxonida rangli tuxumlar, yonib turgan sham, oyna, Qur'on kitobi, Hofizning she'rilar kitobi va idishdagi suzib yurgan baliqlar qo'yiladi. Navro'zda "Mahi palav" guruch va baliqdan an'anaviy taom tayyorlash ham odat tusiga kirgan. Qozog'istonda Yangi yil bayrami qozoq va qirg'iz oshxonasining milliy sho'rvasi "Nauriz koje"ni tayyorlash bilan boshlanadi. Odat tusiga ko'ra sho'rva omad timsoli va farovonlik ramzi hisoblanadigan sut, go'sht, sariyog', tariq, makkajo'xori, guruch va suv kabi yettita asosiy mahsulotdan tayyorlanadi.

Butun dunyo nurga, go'zallikka to'lgan shu dilbar faslda jonajon diyorumizga sharqona yangi yil — Navro'zi olam kirib keldi. Bu kunda bamisoli ikki azim daryo tutashmoqda — Navro'z bayramini muborak Ramazon hayiti bilan birga nishonlamoqdamiz. Bu esa tabiatning uyg'onishi va ruhiy poklanish ramziga aylandi. Bugun bahorni sog'ingan yuraklarimiz yangi kun, yangi hayot shukuhi bilan yashamoqda. Osmondan obirahmat yog'ilib, daryo va ko'llarimiz suvga to'lmoqda. Bog'larimiz, qir va adirlarimiz o't-o'lanlar bilan qoplanib, yilimiz barakali bo'lishidan darak bermoqda. Shahar va qishloqlarimiz, vodiy va vohalarimizda sayl-tomoshalar boshlanmoqda. Yangilanish fasli bo'lgan Navro'z kunlarida xalqimizning umum-milliy birdamligi, bunyodkorlik salohiyati yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ming yillar davomida xalqar o'rtasida ma'naviy ko'priklar bo'lib kelayotgan Navro'zning tinchlik, do'stlik va hamkorlik g'oyalari bugungi notinch zamonda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Begzod Turmamatov,**  
"San'atshunoslik" ta'lim  
yo'nalishi 3-kurs talabasi

## NAVRO'Z – TINCHLIK ELCHISI

Ayni kunlarda sayyoramizda 300 millionga yaqin kishi Navro'z bayramini nishonlamoqda. Olimlarning qayd etishicha, ushbu bayram 3000 boshqa ma'lumotlarga 5000 yil davomida Buyuk Ipak yo'lida joylashgan mamlakatlar bo'ylab rivojlanib kelgan. 2009-yilga kelib, Navro'z bayrami YUNESKO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi, 2010-yilda esa BMT Bosh Assambleyasi 21-mart kunini Xalqaro Navro'z kuni deb e'lon qildi.

Bugungi kunda Navro'z Ozarbayjon, Albaniya, Afg'oniston, Bosniya va Gersegovina, Gruziya, Hindiston, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Xitoy (Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni va boshqa hududlar), Mo'g'uliston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, Iroq va O'zbekistonda nishonlanadi. Bu bayram Rossiyaning turkiy, kavkaz va eron

tillarida so'zlashuvchi (tatarlar, boshqirdlar, qrim-tatarlar, qumiqlar, lazginlar, agullar, saxurlar, tabasaranlar, qorachoylar, bolqarlar, kabardinlar, cherkeslar, no'g'aylar, ingushlar, Stavropol turkmanlari va tatarlar) yigirmadan ortiq tub aholisi uchun an'anaviy tarzda o'tkazib kelinadi. Ba'zi mualliflar O'rta asr tarixchilari bayram Yamanda "eroncha tarzda" nishonlanganligi haqida yozishadi. Fotimiylar davrida Misrda "Nauruz" olov yoqish, sovg'alar almashinuvi, qo'shiq aytish va raqsga tushish kabi barcha o'ziga xos fors marosimlar bilan birga xalq bayrami sifatida qabul qilingan.

Navro'z bayramini kelib chiqishi forslarning Qadimgi Erondagi dunyodagi eng qadimgi dinlardan biri - Quyoshga sig'inish va zardushtiylikka borib taqaladi. Asta-sekin bayram diniy xususiyatlarini yo'qotdi va Navro'z qishloq xo'jaligi yilining boshlanishi



# NAVRO'Z KELIBON JUMLAI JAHON...



Bahor fasli tabiatning uyg'onish davri bo'lib, u o'zining betakror go'zalligi va yoqimli ifori bilan inson qalbiga iliqlik baxsh etadi. Bu fasl kelishi bilan yer yuzi yashillikka burkanadi, gullar ochilib, atrof-muhitda o'ziga xos hid — bahor ifori taraladi. Bahor nafaqat fasl sifatida, balki yangilanish, poklanish va yangi hayot ramzi sifatida ham qadrlanadi. Bahor ifori avvalo tabiatning jonlanishida namoyon bo'ladi. Qish faslining sovuq va sokin kunlaridan so'ng daraxtlar kurtak chiqaradi, gullar ochiladi, qushlar sayrab boshlaydi. Boychechak, lola, binafsha kabi bahor gullari o'zining nozik ifori bilan atrof-muhitni bezaydi.

Bu ifor inson qalbida quvonch, tetiklik va umid tuyg'ularini uyg'otadi. Bahorning ilk nafasleri inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Insonlar ko'proq tabiat qo'yniga chiqib, toza havodan bahramand bo'ladilar. Bu esa ularning

mida turli milliy taomlar tayyorlanadi. Ayniqsa, sumalak tayyorlash jarayoni o'ziga xos marosim hisoblanadi. Ayollar birgalikda sumalak pishirib, qo'shiqlar aytib, suhbat quradilar. Bu jarayon jamoaviylik, birdamlik va mehr-oqibatni mustahkamlaydi. Shuningdek, Navro'z bayramida turli xalq o'yinlari, sayillar va madaniy tadbirlar tashkil etiladi. Kurash, uloq-ko'pkari, dorbozlik kabi milliy sport va tomoshalar bayramga yanada fayz bag'ishlaydi. Yoshlar va kattalar birgalikda dam olib, bahorning zavqini his qiladilar. Bahor ifori Navro'z bayramining ajralmas qismidir. Chunki bu bayram aynan bahorning ilk kunlarida nishonlanadi. Tabiatning uyg'onishi, gullarning ochilishi, havoning musaffoligi bayram muhitini yanada ko'tarinki qiladi. Insonlar bir-biriga yaxshi tilaklar bildirib, mehr-oqibatni namoyon etadilar. Navro'z kunlari insonlar o'zaro aloqalarni mustahkamlab, yaqinlari bilan uchrashadilar. Keksalar holidan xabar olinadi, bolalarga e'tibor kuchayadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi.

Bahor kelishi bilan hayotning oddiy ritmi ham o'zgaradi. U insonni harakatcha undaydi, oddiy kundalik hayotga yangi qarash olib keladi. Bu faslda yurak iliqlik va umid bilan to'ladi, har bir kichik voqea — gullarning ochilishi, bolalarning o'yinlari yoki havoning shirin nafasleri — inson ruhiyatini uyg'otadi. Shu sababdan bahor san'atning abadiy ilhom manbai hisoblanadi, chunki u hayotning eng oddiy va go'zal lahzaridan ilhom oladi.

Rassomlar uchun bahor — bu ranglarning eng boy palitrasi. Har bir gullashgan gul, har bir barg, shamolning mayin tebranishi rassom qalbida yangi chizma va tasvirlarni uyg'otadi. Musiqachilar uchun esa bahor — bu ohang, ritm va notalardagi yangi shovqin, har bir qushning sayrashi ilhom manbai. Shu paytda shoirlar va yozuvchilar gullar, quyosh va shamol orqali o'z fikrlarini so'z bilan ifodalaydi, matnlarida hayotiy energiya, iliqlik va umid aks etadi.

Tabiatdagi har bir detal san'at asarlarida aks etadi: shamol shoxlarni sekin tebratadi, gullar ochiladi, qushlar sayrab, havo iliqlik bilan to'ladi. Shu lahza-

Bahor kelishi bilan tabiat hayotga yangicha nafas beradi. Tong hali to'liq yorishmagan bo'lsa ham, havoda bir narsa o'zgaradi: sovuq qish nafasi asta-sekin chekinib, uning o'rnini iliq, yoqimli va shirin havoning nafasleri egalaydi. Daraxtlar mayda kurtaklar bilan bezaladi, gullar yashashga shoshiladi, qushlar sayrab, havoni musiqa kabi to'ldiradi. Shu paytda nafaqat tabiat uyg'onadi, balki inson qalbi ham yangi tuyg'ular bilan to'ladi, ichki dunyoda iliqlik va sokinlik paydo bo'ladi.

Bahor faqat fasl emas, balki san'atkor qalbida alohida o'rin egallaydi. U shunchaki bir fasl emas, balki ruhiy uyg'onish, yangi g'oyalar, ranglar va so'zlar manbai hisoblanadi. Har bir yangi tong, shamolning mayin nafasleri, quyoshning oltin nuri, gullarning ochilishi — ijodkor uchun yangi ilhom manbai bo'ladi. Shu paytda rassomlar, musiqachilar, shoirlar va yozuvchilar qalbida yangi tasvirlar, ohanglar va she'rilar paydo bo'ladi.

Bahor kelishi bilan hayotning oddiy ritmi ham o'zgaradi. U insonni harakatcha undaydi, oddiy kundalik hayotga yangi qarash olib keladi. Bu faslda yurak iliqlik va umid bilan to'ladi, har bir kichik voqea — gullarning ochilishi, bolalarning o'yinlari yoki havoning shirin nafasleri — inson ruhiyatini uyg'otadi. Shu sababdan bahor san'atning abadiy ilhom manbai hisoblanadi, chunki u hayotning eng oddiy va go'zal lahzaridan ilhom oladi.

Rassomlar uchun bahor — bu ranglarning eng boy palitrasi. Har bir gullashgan gul, har bir barg, shamolning mayin tebranishi rassom qalbida yangi chizma va tasvirlarni uyg'otadi. Musiqachilar uchun esa bahor — bu ohang, ritm va notalardagi yangi shovqin, har bir qushning sayrashi ilhom manbai. Shu paytda shoirlar va yozuvchilar gullar, quyosh va shamol orqali o'z fikrlarini so'z bilan ifodalaydi, matnlarida hayotiy energiya, iliqlik va umid aks etadi.

Tabiatdagi har bir detal san'at asarlarida aks etadi: shamol shoxlarni sekin tebratadi, gullar ochiladi, qushlar sayrab, havo iliqlik bilan to'ladi. Shu lahza-

da ijodkorlar bu go'zallikdan ilhomlanib, yangi asarlar yaratadi. Bahor kelishi bilan hayotning yangi sahifasi ochiladi. Har bir kun yangi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi, va san'atkor shu imkoniyatlarni ranglar, so'zlar va obrazlar orqali aks ettiradi.

Bahor kelishi bilan inson qalbi va san'at bir-biriga yaqinlashadi, ijodkorlar yangi asarlar yaratadi, va har bir rang, har bir so'z hamisha bahorning ilhom baxsh etgan ruhini aks ettiradi. Shu paytda san'at asarlarida go'zallik, umid va hayotiy yangilanish timsoli yanada boy va aniq ifodalanadi.

Bahor nafaqat ranglar va gullar bilan, balki tovush va hidlar bilan ham ilhom beradi. Shamolning mayin nafasleri barglarni sekin silkitar, qushlar sayrab, havoni musiqa kabi to'ldiradi. Shu paytda inson qalbi tinchlik va iliqlik bilan to'ladi, ichki dunyo uyg'onadi. Shu uyg'onish san'atkor qalbida yangi obrazlar va g'oyalarni uyg'otadi, ularni ranglar, so'zlar va ohanglar orqali dunyoga yetkazadi.

Fasllar kelinchagi insonlarning ichki dunyosi ham uyg'onadi. Oddiy hayotiy voqealar — ertalabki sayr, gullarning hidini sezish, bolalarning o'yinlari — qalbdagi iliqlik va yangi tuyg'ular uyg'otadi. Shu lahzalarda san'atkor ham ilhomlantiradi, ularni ijodda yangi tasvirlar va g'oyalarga aylantiradi. Shu jihatdan bahor — nafaqat fasl, balki ruhiy uyg'onish va san'atning ilhom manbai. Bu faslda ko'pchilik yuragida iliqlik va mehr uyg'onadi, insonlar o'z atrofidagi go'zallikni qadrlashni boshlaydi. Shu qadriyatlar san'at asarlarida ham aks etadi. Rassomlar, musiqachilar va shoirlar bu hissiyotlarni o'z ishlari-ga soladi, natijada san'at asarlari yanada boy va rang-barang bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bahor — bu nafaqat tabiatdagi o'zgarish, balki san'at va ijodning muhim ilhom manbai. Har bir yangi tong, har bir ochilgan gul, shamolning iliq nafasleri san'atkor qalbida yangi g'oya uyg'otadi. Shu orqali inson tabiat bilan uyg'unlashadi, ruhiy yangilanishni his qiladi va bu hissiyotlarni san'at orqali boshqalar bilan bo'lishadi.

**Zinnura Mirsaidova,**  
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi  
1-kurs talabasi

## NAVRO'Z KUNLARI ODAMLAR UY-JOYLARINI TOZALAB, KO'NGILLARINI HAM POKLAYDILAR.

kayfiyatini ko'taradi, sog'lig'ini mustahkamlaydi. Bahor ifori nafaqat sezgi orqali, balki qalb orqali ham his etiladi. Navro'z bayrami aynan mana shu bahoriy uyg'onish bilan uyg'unlashgan holda nishonlanadi. Bu bayram xalqimizning eng qadimiy va sevimli an'analaridan biridir. Navro'z kunlari odamlar uy-joylarini tozalab, ko'ngillarini ham poklaydilar. Bu jarayon yangilanish va poklanish ramzi sifatida qaraladi. Bahor kelishi bilan xalqimiz uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan Navro'z bayrami nishonlanadi.

Navro'z qadimiy bayramlardan biri bo'lib, u tabiatning uyg'onishi, kun va tunning tenglashuvi bilan chambarchas bog'liq. Bu bayram orqali inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Navro'z bayra-

# EVRIŁ TURON — MILLIY TAFAKKUR VA JASORAT TİMSOLI



O'zbek adabiyoti va publitsistikasida o'zining qat'iy fuqarolik pozitsiyasi, milliy ruhdagi asarlari va dadil qarashlari bilan alohida o'rin egallagan ijodkorlardan biri — Mamadali Mahmudovdir. U adabiyot olamida Evril Turon taxallusi bilan tanilgan bo'lib, mazkur nom uning ijodiy e'tiqodi va ma'naviy qarashlarini o'zida mujassam etadi.

Mamadali Mahmudov 1940-yilda Jizzax viloyatining Forish tumanida tug'ilgan. Tog'lar va kengliklar bag'rida o'tgan bolalik yillari uning dunyoqarashi shakllanishida muhim o'rin tutdi. Qishloq hayoti, xalq og'zaki ijodi, tarixiy rivoyatlar va milliy

**“QASHQIR HECH QACHON ZANJIRGA  
KO'NIKMAydi. U OCH QOLSA HAM,  
ERKIN YURISHNI TANLAYDI.”**

qadriyatlarga boy muhit kelajakdagi yozuvchining tafakkuriga chuqur ta'sir ko'rsatdi.

Bolaligidan kitobga mehr qo'ygan Mamadali Mahmudov oliy ta'limni tamomlagach, matbuot va nashriyat sohasida faoliyat yuritdi. U tarix, falsafa va milliy davlatchilik masalalariga jiddiy qiziqdi. Aynan shu izlanishlar natijasida uning publitsistik qarashlari

shakllanadi.

“Evril Turon” taxallusi orqali u turkiy uyg'onish, tarixiy xotira va milliy birlik g'oyalari ilgari surdi. Uning nazarida adabiyot — bu shunchaki badiiy tasvir emas, balki millat ongini uyg'otuvchi kuchdir.

Adibning asarlarida quyidagi mavzular yetakchi o'rin tutadi:

- Milliy o'zlik va tarixiy xotira
- Turkiston va Turon g'oyasi
- Mustaqillik va ma'naviy uyg'onish
- Jamiyat va shaxs mas'uliyati

Uning publitsistik maqolalari o'tkir ruhda, chuqur tahliliy yondashuv asosida yozilgan. Har bir asarida muallif o'quvchini mushohadaga, tarixdan saboq chiqarishga chorlaydi.

Mamadali Mahmudov o'z qarashlari sababli murakkab sinovlarni ham boshdan kechirgan. U mustaqil fikri va milliy manfaatlarni himoya qilgani uchun bosimlarga duch kelgan. Ammo bu holat uning e'tiqodini sindira olmadi. Aksincha, uning ijodida jasorat va qat'iyat yanada mustahkamlandi.

Eng mashhur asarlaridan biri — “Bogdon qashqiri”. Asarda asosiy qahramon — qashqir (bo'ri)— insonga o'xshatilgan ramziy obraz bo'lib, u erkinlik, ruhiy mustaqillik va jasoratni ifodalaydi. Asardan eng ta'sirli parchalaridan biri shu: “Qashqir hech qachon zanjirga ko'nikmaydi. U och qolsa ham, erkin yurishni tanlaydi.”

Bu parcha inson uchun ham eng katta qadriyat — erkinlik ramzi hisoblanadi. Boshqa bir parcha esa insonning ichki qo'rquvlari orqali cheklanishini ko'rsatadi: “Inson o'z qo'rquvi bilan o'ziga qafas qurib oladi.”

Asarda bo'ri va insonlar orasidagi qarama-qarshilik orqali hayot haqiqatini ochib beradi: Buri och va yolg'iz bo'lsa ham erkinlikdan voz

**“INSON O'Z QO'RQUVI BILAN  
O'ZIGA QAFAS QURIB OLADI.”**

kechmaydi, insonlar esa qulaylik va qo'rquv bilan o'zliklarini cheklaydi.


Shu bilan birga, asarda Turon ruhi va milliy qadriyatlar ham seziladi: “Erkinlikni unutgan el — o'z ildizini unutgan daraxtdek.”

**“ERKINLIKNI  
UNUTGAN EL —  
O'Z ILDIZINI  
UNUTGAN  
DARAXTDEK.”**

Mamadali Mahmudov 2020-yilda Toshkent shahrida vafot etdi. Ammo uning asarlari va g'oyalari bugun ham yashamoqda. U qoldirgan boy ma'naviy meros yosh avlodni o'zlikni anglashga, tarixga hurmat bilan qarashga va

mustaqil fikrlashga undaydi. Har doim Evril Turon haqida so'z yuritilgandan albatta o'sha yuzlari nurli, fayzga to'la inson ko'z oldimda gavdalanadi. Mamadali Mahmudov nafaqat yozuvchi, balki millat dardini his qilgan, so'z orqali kurashgan fidoyi ziyoli inson edi. Ularning yashab o'tgan hayoti va ijodi-jasorat, sadoqat, qat'iyat timsoli bo'lib qoladi. Evril Turon xotirasi bizning qalbimizda mangu yashaydi!

**Farangiz Xamroboeva,**  
“San'atshunoslik” ta'lim yo'nalishi  
1-kurs talabasi



# ONA — BU...

Bilasizmi, aslida hammasi biz tasavvur qilgandan ancha oddiy va ancha murakkab. Dunyoda shunday bir haqiqat borki, uni mantiq tarozisiga qo'yib bo'lmaydi. Ba'zida o'zim ham o'ylab qolaman nega eng muhim narsalar aynan shunaqa bo'ladi? Bu ayol vujudining boshqa bir hayot uchun o'zini qurbon qilishi. Buni so'z bilan tushuntirish qiyin, albatta. Biz ko'pincha buni shunchaki "tabiat qonuni" deb ataymiz, lekin aslida bu yerda ruhning eng tubida bir sir yashiringan. Tasavvur qiling, to'qqiz oy davomida bir jonda ikkinchi jon ulg'ayadi. Oddiydek ko'rinadi, lekin bu bir mo'jiza. Bu shunchaki biologik jarayon emas, bu bir insonning ikkinchi inson uchun vujudidagi borini berishdir. Bola hali dunyo havosidan nafas olmasidan turib, onasining xo'rsinishidagi og'riqni, choy ichgandagi halovatni o'z qoni bilan his qiladi.

Onaning kayfiyati, holi to'laqonli unga ham ta'sir qiladi. Bunday bog'liqlikni boshqa uchratmaysiz. Bu rishta kindik kesilganda uzilmaydi, u shunchaki ko'rinmas, ammo temirdan mustahkamroq ipga aylanadi.

Ona vujudi farzand uchun dunyodagi eng birinchi va eng so'nggi beminnat boshpanadir. Hayot sinovlaridan charchaganingizda kimni eslaysiz ahir? Ona umr bo'yi kutib charchamaydigan insondir. Avval farzandining tug'ilishini, keyin ilk qadamini, keyin maktabdan qaytishini, keyin esa oddiygina qo'ng'iroqni ham kutadi... Va u bularning evaziga hech narsa kutmaydi. Shunchaki omon bo'lsangiz, uzoqdan bo'lsa ham ko'rib, baxtli bo'laveradi. Onalik mehri bu javobi berilishi shart bo'lmagan qarzga o'xshaydi. Siz uni hech qachon qaytarib bera olmaysiz, chunki ona bunga muhtoj ham

emas. U hayotining har bir soniyasini sizga hadya qilganida, o'zini dunyodagi eng boy odamdek his qilgan.

Yurakni seskantiradigan haqiqat shuki, biz kuchga to'lganimiz sayin, onamiz kichrayib, zaiflashib boradi. Bu haqiqatni tan olish qiyin... Aslida onalik haqida gapirganda, odamning tomog'iga nimadir tiqiladi. Gapirmoqchi bo'lasiz lekin so'z yetmay qoladi. Yana bir og'ir yurakni ezadigan haqiqat shundaki, ona o'zi uchun yashashni to'xtatgan. Uning hamma orzulari, hamma rejaları faqat farzandiga aloqador bo'lib qoladi. O'zi charchab, tinkasi qurib tursa ham, bolasiga kelganda qayerdandir kuch topadi. Qayerdan oladi shu kuchni, ayting...

Ona bu siz yiqilganda boshingizni qo'yadigan yostiq emas, u sizni qaytadan oyoqqa turg'izadigan, ichingizdagi o'sha yengilmas kuchdir. Uning duosi bo'lmaganda, biz bu dunyoda allaqachon muzlab bitgan bo'lardik. Balkim onalik mehri ko'rgan bu qalbimizda shuning uchun ilqlik bordir. Uning sabri oldida hamma narsa tizzalab qoladi. Ona va

farzand o'rtasidagi bog'liqlik bu dunyoda sotib olib bo'lmaydigan, o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan yagona muqaddas narsadir.

**Sabina Zakirova,**  
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi



# SAN'AT TARIXIDA AYOL IZLARI

Ayol... Bu to'rt harf zamirida dunyo mujassam. Dunyolarga teng ma'no mujassam. Ayol — hayotning eng nozik va eng qudratli mo'jizasi. U mehr bilan dunyoni isitadi, sabr bilan uni asraydi. Ayolning nigohida umid, so'zida taskin, yuragida cheksiz muhabbat bor. Ayol sukutda ham gapira oladigan, ko'z yoshida ham kuch topadigan zot. Uning borligi uyga baraka, jamiyatga tarbiya, insoniyatga kelajak olib keladi. Har gal ushbu so'zga ta'rif berganda, turli sifatlar bilan olqishlanganda, avvalo, bizga hayot in'om etgan mo'tabar onalarimiz gavdalanadi. O'tkir Hoshimov yozganidek: "Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi nur sochib turadigan sehrli kuch bor — bu ona mehri!"

Darhaqiqat, ularning hayotimizda egallagan o'zni beqiyosdir. Lekin men hozir onalar haqida emas, balki, iste'dodi, mehnati, jasorati tufayli san'at tarixida o'chmas iz qoldira olgan ayollar haqida yozmoqchiman.

San'at — inson ruhining eng nozik va eng chuqur ifodasi. Bu olamda ayollar azaldan nafaqat ilhom manbai, balki ijodkor, yaratuvchi va yangilik kirituvchi kuch sifatida muhim o'rin egallab kelgan. Ayol san'atda go'zallik timsoligina emas, balki tafakkur, jasorat va yangicha qarash ramzidir. Tarix davomida ayollar san'atga ko'plab to'siqlarga qaramay kirib kelgan. Ularning ovozi ba'zan eshitilmagan, nomi soyada qolgan. Ammo o'z iste'dodi va mehnati bilan san'at tarixida o'chmas iz qoldira oldi. Masalan, rassomchilikda Frida Kahlo o'zining og'riqli hayoti, ichki kechinmalari va ayollik tajribasini jasorat bilan tasvirlab, san'atni shaxsiy iztirob orqali yangi bosqichga olib chiqdi. Musiqa, adabiyot, teatr va kino sohalarida ham ayollar san'atining mazmunini boyitdi. Ular mehr, fidoyilik, dard, isyon va umid kabi tuyg'ularni san'at orqali insoniyatga yetkazdi. Xoreografiya san'ati taraqqiyotida ayollarning o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Ayol tanasining plastik imkoniyatlari,

emotsional ifodaviyligi va tabiiy ritmik sezgisi xoreografiya san'atining mazmunini va shakliy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.


Xususan, XX asr boshlarida klassik baletning qat'iy qoidalariga qarshi chiqqan Isadora Duncan zamonaviy raqs asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar uning ijodini ayol tanasining erkinligi va tabiiy harakat falsafasi bilan bog'laydi. Duncan raqsni texnik mukammallikdan ko'ra, ichki kechinma va musiqiy his orqali ifodalash mumkinligini ilmiy-amaliy jihatdan isbotlab berdi. Bu yondashuv xoreografiya san'atida yangi estetik mezonlarning shakllanishiga olib keldi.

O'zbek milliy raqsida ayol obrazining asosiy xususiyatlari — nazokat, ichki sokinlik, hissiy chuqurlik va ma'naviy poklikdir. Harakatlar tizimi keskin sakrashlar yoki agressiv dinamika emas, balki qo'l, bilak, yelka va nigoh orqali ifodalanadigan nozik plastika asosida quriladi. Bu holat sharqona ayol idealining — kamtarlik va ichki kuch uyg'unligining badiiy ifodasidir.

XX asrda o'zbek milliy raqsining sahna san'atiga chiqishida Tamaraxonimning hissasi beqiyosdir. Uning ijodi ilmiy adabiyotlarda alohida e'tirof etiladi. U o'zbek ayollar raqsini professional sahnaga olib chiqib, milliy xoreografiyani akademik darajaga ko'tardi. O'zbek milliy raqsida ayol obrazi — bu shunchaki sahnaviy qahramon emas, balki millatning estetik ideali, ma'naviy qiyofasi va tarixiy xotirasini mujassamlashtirgan badiiy timsolidir.

Eng muhimi, ayollar san'atda faqat ijod qilmagan, balki jamiyat tafakkurini o'zgartirgan. Ular san'at orqali ayol sha'ni, erkinligi, ichki kuchi va qadriyatlarini himoya qilgan. Shuning uchun ham ayol san'atkorlar qoldirgan nom — bu shunchaki tarixiy ism emas, balki avlodlarga yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy merosdir.

**Shamsiqamar Erkinboyeva,**  
"Xoreografiya jamoalari rahbari"  
ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi



**O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI VAKANT O'RINLARGA TANLOV E'LON QILADI**

**1. "Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrası professorı (1 o'rin)**

**2. "Xoreografiya pedagogikasi" kafedrası katta o'qıtuvchısı (1 o'rin)**

**3. "Xoreografiya pedagogikasi" kafedrası o'qıtuvchısı (1 o'rin)**

1. Rektor nomiga arıza.
2. Xodimning shaxsiy varaqası.
3. Ma'lumoti, ilmiy darajası, ilmiy unvoni haqidagi diplom nusxalari.
4. Pasport nusxası.
5. Ilmiy ishlar ro'yxati (ilmiy kotib tomonidan tasdiqlangan holda).
6. Malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxası.
7. Mehnat daftarchasining nusxası.

*\*Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.*

**Manzil:** 100011, Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.  
**Telefonlar:** 71 215-55-94, 71 215-56-98.

**TAHRIR HAY'ATI**

Nozim Qosimov  
Hulkar Hamroyeva  
Matluba Murodova  
Po'lat Tashkenbayev  
Dildora Qosimova  
Shahzoda Xudoynazarova  
Gulasal Usmonova  
Hamidjon Ro'ziboyev

**BOSH MUHARRIR:**

Shuxrat TOXTASINOV

**BIZNING MANZIL:**

100031, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.

**NASHR UCHUN MAS'UL**

Durdona Ubaydullayeva

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Nashr indeksi: 145  
Ofset usulida bosildi.  
Qog'oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti: 19:00  
Bosishga topshirildi: 21:25  
Adadi: 200  
Bahosi kelishgan narxda.

**SAHIFALOVCHI:**  
Jurobek XIDIROV

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.

"Niso nashriyat va matbaa uyi" mchj bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, Mash'al mahallasi, Markaziy ko'cha, 1-uy.

Buyurtma: 414  
Hajmi 1 bosma taboq.